

## MULOQOT SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

**Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna**

O'zMU, “Psixologiya” kafedراسi mudiri,

Psixol.f.d.prof.

**Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi**

O'zMU, amaliy psixologiya talabasi

**Anotatsiya.** Shaxslararo munosabatlarning ahamiyati, ularning sifati va mazmuni inson hayotining barcha bosqichlarida saqlanib qoladi, chunki ular hayotining birinchi kunidan to oxirgi kunigacha inson mavjudligining zaruriyatidir. Voyaga etganida, inson o'z hayot yo'lining to'laqonli va ongli ustasiga aylanadi va muloqotni o'zida shakllantiradi. Ushbu maqolada Shaxslararo muloqotning ijtimoiy omillarini yoritib beramiz.

**Kalit so'zlar:** muloqot, shaxslararo munosabat, tafakkur, regulyativ, affektiv, informativ, hayajon.

**Аннотация.** Значимость межличностных отношений, их качество и содержание сохраняются на всех этапах жизни человека, поскольку они являются необходимостью человеческого существования с первого дня жизни и до последнего. В зрелом возрасте человек становится полноправным и сознательным хозяином своего жизненного пути и формирует общение внутри себя. В данной статье мы выделим социальные факторы межличностного общения.

**Ключевые слова:** общение, межличностные отношения, мышление, регулятивный, аффективный, информативный, волнение.

**Abstract.** The importance of interpersonal relationships, their quality and content remain at all stages of human life, since they are a necessity of human existence from the first day of life to the last. In adulthood, a person becomes a full-fledged and conscious master of his life path and forms communication within himself. In this article, we will highlight the social factors of interpersonal communication.

**Keywords:** communication, interpersonal relationships, thinking, regulatory, affective, informative, excitement.

**Kirish.** Har bir shaxs uchun shaxslararo munosabatlarning ahamiyati boshqa odamlar bilan aloqalar o'rnatishda, qulay munosabatlar uchun zarur vosita ekanligida, shaxsning eng muhim, asosiy ehtiyojlarini qondirishning bir usuli ekanligiga asoslanadi. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanadi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida rivojlanadi.

**Muhokama.** Muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug'ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha orqada qolib ketadi. Inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi. Muloqotsiz insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Shaxslararo munosabat muammosini tadqiq etish, uning qonuniyatlarini yoritish borasida izlanishlar, psixologiya fanida yetarlicha o'ringa ega. Bizga ma'lumki, Kolominskiy Ya.L, Bodolyov A.A, Lomov B.F kabi psixologlarning shaxslararo munosabat borasidagi izlanishlarida bir qator o'ziga xosliklarni ko'rishimiz mumkin. Ularning izlanishlarida odamlar orasidagi munosabat va muomala uch jihatdan yoritiladi. Masalan, Ya.L.Kolominskiy shaxslararo munosabat va muomalani uch komponentga, ya'ni, xulqiy, affektiv, kognitivga; A.A.Bodolyov ham uchta praksik, affektiv va gnostikga; B.F.Lomov ularning an'anasini davom ettirib uchlikka asoslanadi va regulyativ, affektiv va informativga ajratadi.

V.M.Myashichev munosabatning eng asosiy tushunchasi sifatida e'tirof etib, psixologiyaning asosiy kategoriyasi va shaxs shakllanishini ta'minlovchi asosiy omil deb qaragan edi. V.M.Myashichev o'z konsepsiyasini «Shaxsning munosabatlar psixologiyasi» deb nomlaydi. Muomala va shaxsning ruhiy tuzulishi to'g'risida muallif shaxs ruhiyati yaxlit, uning vujudga kelishi esa sabab natijasi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, shaxs dialogli muomalaning malakasi va boshqalar bilan munosabatning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Muomala



jarayonida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishning tashqi ahamiyatga molik bo'lgan shaxsiy tajribasi borliqqa nisbatan ichki munosabatlarni individual tanlanma xususiyatini determinatsiya qiladi. V.M.Myasishchev fikricha, bu munosabatlar qiziqish darajasini, hayajon kuchini, hohish yoki ehtiyojni tavsiflaydi va subyektlarning xulq-atvorida, xatti-harakatida, kechinmalarida namoyon bo'ladi.

**Natija va tahlil.** Shaxslararo munosabat - bu sub'ektlarning ma'lum tipdagi o'zaro ta'sirlashuvga o'zaro tayyorligi. O'zaro ta'sirlashuvga tayyorgarlik esa emotsional kechinmalarda kuzatiladi: ijobiy, different, salbiy. O'zaro ta'sirlashuvga tayyorlik sub'ektning muloqot sharoitidagi, hamkorlik munosabatidagi faoliyatida gi hulq – atvorida amalga oshiriladi. Aynan muloqot va hamkorlik munosabatidagi faoliyat shaxslararo munosabatning xarakterini ochib beradi.

Shuningdek, shaxslararo munosabat muammosini tadqiq etishda munosabatning umumiy psixologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlariga tayanishimiz mumkinligi tufayli ham uning ayrim xarakterli tomoni, xususan, o'zaro hamkorlik munosabati, bir – birini qo'llab – quvvatlash, o'zaro hurmat, simpatiya, o'zaro intilish, antipatiya, empatiya, do'stlik va yaqinlik alomatlari xususida ham olib borilgan izlanishlarga to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi.

Shaxslararo munosabatlar muomalada turli darajadagi faollik, tanlovchanlik hamda ijobiy va salbiy tomonlari bilan aks etadi. V.M.Myasishchev muomalani muloqatga keng tarqalgan shakllarini bayon etishga va tartibga keltirishga harakat qilgan. Birinchi holat shaxslararo munosabatlarga murojaat shaklining mos tushushidir. Ikkinchi holatda muomala shakli shaxslararo munosabatlar bir-biridan keskin tafovutlanuvchi holatlar kiritiladi. Shaxsga muomalaning ta'siri shart-sharoitlari va ruhiy omillari muallif tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi. So'zga ta'sirchanlik ko'p jihatdan shaxsning tashqi ta'sirga berilish darajasiga, qayta ishonirish darajasiga bog'liq. Moyillik shaxsning zakovatini belgilovchi barqaror hususiyati mahsuli emas, balki odamlarning o'zaro munosabatlari natijasi hisoblanadi.

N.N.Obozov o'zining izlanishlarida shaxslararo munosabatning keng qamrovli o'rganishga harakat qildiki, uning tadqiqotlarida shaxslararo munosabatning o'ziga xos qonuniyatlari yoritib berildi. Uning ilgari surgan g'oyalari ostida shaxslararo munosabatda sheriklarni bir – birini yoqtirishi va



bir – biridan qochishi, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik ko‘rsatish jihatlari yoritildi.

N.N.Obozov shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ikkiga, ya’ni, rasmiy va norasmiy tarzda ko‘rinish olishini qayd etadi. Uning fikricha, rasmiy tarzda munosabatlar jamiyat miqyosida rasmiylashtirilib, nazorat qilish mumkin. Norasmiy munosabatlar esa jamiyat miqyosida ham bo‘lishi bilan bir qatorda ular rasmiylashtirilmaydi yoki hujjatlarda qayd etilmaydi.

Boshqa bir tavsifda esa shaxslararo munosabat ish va shaxsiy munosabat ko‘rinishini olishi ta’kidlanadi. Ish munosabatlari o‘quv faoliyati va mehnatdagi hamkorlik munosabati faoliyatida gavdalanishi qayd etiladi.

A.V.Petrovskiy va K.K.Platonovlar ish va shaxsiy munosabatlarni tahlil etar ekan, bir qator ko‘rinishini tavsifladilar: ish va shaxsiy munosabatlar ob’ektiv va sub’ektiv, rasmiy va norasmiy, bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkinligini qayd etdilar.

Ya.L.Kolominskiy shaxslararo munosabatni tavsiflar ekan, “Shaxslararo munosabat muloqot jarayonida paydo bo‘ladi va unda rivojlanadi. Muloqot axborot va predmetli munosabat bo‘lib, bu jarayonda shaxslararo munosabat bo‘lib, bu jarayonda shaxslararo munosabat shakllanadi va namoyon bo‘ladi”, - deydi.


Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o‘zaro ta’siri sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo‘luvchi aloqa va o‘zaro ta’sirlar yig‘indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro‘y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus hulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shaxslararo munosabatni samarali tashkil etishda muloqotning o‘rni va uning ahamiyati kata. Chunki, muloqot jarayonida shaxslararo axborot almashinishi, bir-birini idrok qilinishi va xulq-atvoriga ta’sir qilinishi asosida insonlar bir-birlarini tushunishi, anglab yetishi, qo‘llab quvvatlashi, bir maqsad sari harakatlanishi, bir-birlarini o‘rganish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эргашев П. Мулоқот психологияси (маърузалар матни). Тошкент, 2003
2. Ғозиев Э. Муомала психологияси. Тошкент, 2001.
3. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс.- СПб.: Прайм – ЕВРОЗНАК, 2002.-512с.
4. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 19b.
5. S.L. Rubinshteyn . Umumiy psixologiya asoslari 2006.



# Research Science and Innovation House

